



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS: 2 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASIDA AKTUAR HISOBLARNI QULLASH VA RIVOSHLANTIRISH MASALALARI <i>Nurullaev Abdulaziz Sirojiddinovich</i>	5
2.	SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA XORIJ TAJRIBASI <i>Nosirov Jasur Tursunpulotovich</i>	9
3.	ESG TAMOYILLARI ASOSIDA SUG'URTA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Yusupov Akbar Haydarovich</i>	14
4.	SUG'URTA SOHASIDA INNOVATSION MARKETING VA RAQAMLI REKLAMA STRATEGIYALARINI JORIY ETISH YO'NALISHLARI <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	18
5.	MIJOZLAR QAMROVINI OSHIRISH UCHUN SUG'URTA KOMPANIYALARIDA TIZIMLI MARKETING STRATEGIYALARINI AMALGA OSHIRISH <i>Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	21
6.	O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINING HOLATI: MAVJUD MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	25
7.	PENSIYA SUG'URTASINI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING ZARURIYATI VA DOLZARBLIGI <i>Yo'ldoshoval Aziza Muzaffar qizi</i>	28
8.	BANK XIZMATLARINI SUG'URTALASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	30
9.	O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA KOMPANIYALARNING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI DINAMIKASI <i>Iminova Nurjahon Qodirjon qizi</i>	34
10.	QISHLOQ XO'JALIGIDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH <i>Djumayev Jonibek O'rinovich</i>	38
11.	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕРЕСТРАХОВОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ СТРАХОВОГО СЕКТОРА <i>Муминова Ансора Улдузбек кизи</i>	42
12.	СОВРЕМЕННЫЕ ДРАЙВЕРЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРАХОВЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Зохидова Диёра Улдузбек кизи</i>	45
13.	O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI <i>Madiyev Abbas Nosirovich</i>	50
14.	QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNI ILMIY TASNIFLASH METODOLOGIYASI <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	53
15.	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TASHKILOTLARI TO'LOV QOBILYATINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Xattabov Murodulla Batirovich</i>	56
16.	KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY BOSHQARUVNING AHAMIYATI <i>Muratova Saodat Igamnazar qizi</i>	59
17.	TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI <i>E.I.Ergashev, Qarayev Anvar Botirovich</i>	63
18.	O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI <i>Kuldashev Jahongir Qamariddinovich</i>	67
19.	BANK TIZIMI BARQARORLIGI IQTISODIY RIVOJLANISH GAROVIDIR <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	71
20.	MILLIY IQTISODIYOTNI KREDITLASHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	73
21.	A SYSTEM OF INDICATORS FOR ENSURING THE ECONOMIC SECURITY OF COMMERCIAL BANKS UNDER INCREASING SYSTEMIC RISK <i>Malikova Dilrabo Muminovna</i>	76

22.	IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANISHDA HUDUDIY MARKETINGNING FUNKSIONAL O'RNI VA AHAMIYATI <i>Mukhammadieva Nodira</i>	79
23.	XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INSON RESURSLARIGA QILINGAN XARAJATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI <i>Usmanova Nigina Marupovna</i>	84
24.	НАЛОГОВАЯ РЕФОРМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР РОСТА СПРОСА НА УСЛУГИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА СРЕДИ МАЛОГО БИЗНЕСА <i>Холбеков Расул Олимович</i>	88
25.	O'ZBEKISTON TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI: IQTISODIY TA'SIRLAR, INSON KAPITALI VA REINTEGRATSIYA MUAMMOLARI <i>Ismatova Shoxsanam Abdulaziz qizi</i>	92
26.	O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI <i>Berdibayev Fayzulla Zariybayevich</i>	95
27.	ASOSIY KAPITALGA O'ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALAR UZOQ VAQT BARQAROR FOYDA KELISHI KAFOLATI <i>Jomolov Muzaffar Mirzoxitovich</i>	98
28.	SUG'URTA KAPITALIDAN INVESTITSIYA SIFATIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA BAHOLASH (DEA MODELI ASOSIDA) YO'LLARI <i>Kenjayev Ilhom G'iyozovich</i>	101
29.	RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI INDIVIDUAL SPORTCHILARNI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI TAHLILI <i>Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li</i>	105
30.	TOSHKENT SHAHRIDA ANHOR KANALI BO'YLAB OSMA KABINALI JAMOAT TRANSPORT TIZIMINI YARATISH KONSEPSIYASI <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li, Kamolidinov Muhibillo Shokirjon o'g'li</i>	109
31.	SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRARISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNI ME'YORLASHTIRISHNING USLUBIY JIHLARI <i>Ergashev Abrorbek Raxmatulla o'g'li</i>	112
32.	METROLOGIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY JIHLARI <i>Rakhmatillaev Nodirjon Yo'ldashvaevich</i>	114
33.	AN INTEGRATED RISK-BASED MODEL FOR ASSESSING THE EXTERNAL ENVIRONMENT OF SMALL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: IMPLICATIONS FOR THE INSURANCE MARKET <i>Djumabayeva Dilobar Asatillayevna</i>	116
34.	UY-JOY NARXLARINI HISOBLASHDA HEDONIK REGRESSIYA FORMULASIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI <i>Tog'ayeva Dildora Akramovna</i>	120
35.	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ КЛАССИЧЕСКИХ И СОВРЕМЕННЫХ ПРИНЦИПОВ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ <i>Ахоров Зариф Орипович</i>	123
36.	RAQAMLI SOLIQ TIZIMLARINI JORIY ETISH VA ULARNING IQTISODIY TA'SIRI <i>Tuychiyev Sherxon Shuxrat o'g'li, Xubbimov Sherzod Jamshidovich</i>	126
37.	SOLIQQA TORTISHNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLILLAR ASOSIDA <i>Toshnazarova Lola Shuxratillayevna, Karimov Mardon Akram o'g'li</i>	129
38.	TURIZMDA INNOVATSIYALARNING HAYOTIYLIK SIKLI VA ULARNING BOZORGA CHIQRISH BOSQICHLARI <i>Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi</i>	133
39.	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH <i>Xalimov Shaxboz Xalimovich</i>	136

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNI ME'YORLASHTIRISHNING USLUBIY JIHLTLARI

Ergashev Abrorbek Raxmatulla o'g'li

TDIU, tayanch doktoranti, ISFT Instituti
Buxgalteriya hisobi kafedrasida o'qituvchisi
Email: abrorbekergashev96@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlari va ulardan foydalanishning me'yorlari nazariy va uslubiy jihatdan tadqiq qilingan. Shuningdek, xorijiy va mahalliy olimlarning ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish borasidagi nazariy yondashuvlari keltirib o'tilgan. ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni yaxshilash borasida ilmiy ahamiyatga molik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ishlab chiqarish quvvati, tarmoq va sohalar, tarmoqlar raqobatbardoshligi, ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish, ishlab chiqarish quvvatlarining me'yoriy jihatlari, me'yorlashtirish talablari.

Abstract: This article theoretically and methodologically studies the norms of production capacities and their use in industrial enterprises. Also, theoretical approaches of foreign and domestic scientists to the use of production capacities are presented. Scientifically significant recommendations are developed to improve the use of production capacities.

Keywords: production capacity, sectors and industries, competitiveness of sectors, efficient use of production capacity, regulatory aspects of production capacity, standardization requirements.

Абстрактный: В данной статье теоретически и методологически исследуются нормы производственных мощностей и их использования на промышленных предприятиях. Также представлены теоретические подходы зарубежных и отечественных ученых к использованию производственных мощностей. Разработаны научно значимые рекомендации по совершенствованию использования производственных мощностей.

Ключевые слова: производственная мощность, секторы и отрасли, конкурентоспособность секторов, эффективное использование производственной мощности, нормативно-правовые аспекты производственной мощности, требования к стандартизации.

Kirish (Введение/Introduction).

Jahonda ro'y berayotgan geosiyosiy vaziyat bugun barcha davlatlarning shiddat bilan tashqi va ichki bozor talablariga moslashishni, barcha mavjud imkoniyatlarni ishga solish, ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish hamda ishlab chiqarishda qo'shilgan qiymatli mahsulotlar yaratish orqali yuqori samaradorlikka erishish asosiy maqsad qilib tanlab olindi.

Raqobat muhiti sharoitida respublikamizning iqtisodiy tayanchi hisoblangan tarmoq va sohalarini barqaror rivojlantirish asosida iqtisodiy o'sishni ta'minlashga erishishdan iborat. Sanoatda ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanishning o'ziga xos murakkab hamda ko'p jihatli masalalarga e'tibor berish talab etiladi.

Sanoat korxonalarida faoliyatida turli ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishning me'yorlashtirish uslublarini joriy qilish asosida samarali mexanizmlarni ishlab chiqarish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Korxonalarining ishlab chiqarish quvvati faqat texnik ko'rsatkich sifatida emas, balki korxonada iqtisodiy faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichini belgilaydigan umum majmuaviy kategoriya sifatida tadqiq qilish mumkin.

Adabiyotlar sharhi (Обзор литературы/Literature review)

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishning me'yorlashtirish uslublarini ilmiy jihatdan tadqiq qilish borasida ishlab chiqarish quvvati tushunchasining nazariy jihatlari tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega.

O.V.Baskakova va L.F.Seykolar tomonidan korxonaning ishlab chiqarish quvvati tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlariga alohida urg'u bergan holda, "Korxonaning ishlab chiqarish quvvati – bu mahsulotlarni sotish rejasiga muvofiq belgilangan nomenklatura va assortiment doirasida, ilg'or innovatsion texnologiyalardan foydalanish, mehnat va mahsulot ishlab chiqarishni samarali tashkil etish, yetakchi uskunalari va ishlab chiqarish maydonlaridan eng yuqori darajada foydalanish natijasida korxonada tomonidan erishish mumkin bo'lgan ishlab chiqarishning yuqori hajmini anglatadi" [1].


Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni me'yorlashtirishning uslubiy jihatlari ilmiy jihatdan tadqiq qilgan Rossiyalik olimlardan V.M.Makarov va S.V.Lukinalar ushbu jarayonga alohida to'xtalib o'tgan holda quyidagicha yondashgan ya'ni, "Ishlab chiqarish quvvati belgilangan sharoitlarda turli jihozlar va ishlab chiqarish resurslaridan (ishlab chiqarish maydonlari, energiya xom ashyo va jonli mehnat resurslaridan) foydalanish asosida muayyan vaqt davrida mahsulotlarning mumkin bo'lgan eng yuqori hajmda (mahsulot birliklari sonida) ishlab chiqarilish miqdori bilan ifodalanadi. Quvvatlarni optimallashtirishning muhim jihati bu mahsulotning hayot siklini turli bosqichlarida samarali foydalanish hisoblanadi" [2].

Tadqiqot metodologiyasi (Методы/Methods)

Mazkur tadqiqotda nazariy tadqiqotlar olib borish, sintez, mantiqiy fikrlash, solishtirma tahlil usullaridan foydalanilgan. Shuningdek, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish me'yorlarini ta'minlash borasida nazariy yondashuvlar ilmiy jihatdan asoslangan.

Tahlil va natijalar muhokamasi (Анализ и результаты/Analysis and results)

Sanoat korxonalarida faoliyatiga ilmiy nuqtai-nazardan qaraydigan bo'lsak, iqtisodiy yoki texnik yondashuvlar yetarli emas. Iqtisodiy yondashuv ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashga hissa qo'shsa, texnik yondashuv ishlab chiqarish imkoniyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Uyg'unlashgan tarzda ularni qo'llanilishi sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligini oshirishda, korxonada resurs tejamlorligini ta'minlash hamda bozor talablariga mos tarzda ishlab chiqarish tizimini shakllantirish talab etiladi [5].



1-rasm. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlarini me'yorlashtirishning umumiy mezonlari¹

Korxonalarda ishlab chiqarish quvvatlarini me'yorlashtirish mezonlari 1-rasmda keltirib o'tilgan bo'lib, unga ko'ra, ushbu me'yorlashtirish mezonlarini asosan iqtisodiy, tashkiliy va texnik mezonlarga bo'lgan holda ko'rib chiqdik. Ushbu mezonlar korxonaning ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks baholash imkonini yaratadi. Har bir me'yorlashtirish mezonining korxonada faoliyatidagi ahamiyati mavjud:

Iqtisodiy mezonlar – bu ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aks ettiradi. Ushbu ko'rsatkichlar ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi bevosita korxonaning moliyaviy natijalariga qay darajada ta'sir ko'rsatayotganini baholash zarur.

Tashkiliy mezonlar – ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish darajasini tavsiflaydi hamda ish rejimi, vaqt resurslaridan foydalanish va ishlab chiqarish bo'g'inlari o'rtasidagi muvofiqlikni baholash imkonini beradi. Ushbu mezon bevosita ishlab chiqarish tizimining uzluksizligi va barqarorligini ta'minlashda muhim hisoblanadi.

Texnik mezonlar - ishlab chiqarish quvvatlarining texnologik salohiyati va uskunalaridan foydalanish samaradorligini baholashga xizmat qiladi. Ushbu mezonlari asosida korxonada mavjud texnik resurslardan foydalanish darajasi va texnologik zahiralarni aniqlanadi [3].

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlarini me'yorlashtirish mezonlarini uch guruh asosida tizimlashtirilishi xar qanday korxonada faoliyatida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish darajasini aniqlash, mavjud zahiralarni topish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish borasida ilmiy jihatdan asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun uslubiy asos sifatida muhim ahamiyat kasb etadi [6].

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlarini baholovchi mezonlari va uning me'yoriy qiymatlari keltirib o'tilgan bo'lib, unga ko'ra, ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishni baholashda qo'llaniladigan quvvatdan foydalanish koeffitsentini quyidagicha ifodaladi:

$$K_{quv} = \frac{Q_m}{Q_f} \quad (1)$$

Bu yerda:

K_{quv} – quvvatdan intensiv foydalanish koeffitsenti (ushbu ko'rsatkich korxonada ishlab chiqarish quvvatidan qay darajada foydalanilganini ko'rsatadi);

Q_m – amalda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (amalda ishlab chiqarish hajmini ifodalaydi, masalan: tonna, dona, m² va boshqalar);

Q_f – maksimal ishlab chiqarish quvvati (korxonaning mavjud sharoitda loyihaviy yoki rejaviy asosda ishlab chiqaradigan eng yuqori hajmi).

Sanoat korxonalarida mavjud ishlab chiqarish quvvati ma'lum bir vaqt davomida ishlab chiqarilishi mumkin bo'lgan mahsulotlarning eng yuqori hajmini ifodalaydi va ushbu ko'rsatkichning yaxshilanishi bevosita korxonada harakatdagi asosiy vositalarning miqdori, tarkibi va texnik holati bilan belgilanadi [4].

Korxonada asosiy vositalar bu asosan ishlab chiqarish jarayonida uzoq muddat davomida ishtirok etadigan va o'z qiymatini mahsulot tannarxiga bosqichma-bosqich o'tkazib boradigan mehnat vositalari hisoblanadi. Shu bois, ishlab chiqarish quvvati bilvosita asosiy vositalarning haqiqatda ishlab chiqarish imkoniyatlarini ifodalovchi funksional natijasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar (Заключение/Conclusion)

Xulosa sifatida aytish joizki, sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish me'yorlariga amal qilishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish lozim:

- ishlab chiqarish quvvatlarini ilmiy asosda rejalashtirish (ilmiy asoslangan rejalashtirish quvvatlardan ortiqcha yoki kam foydalanish xavfsini kamaytiradi);

- uskunalaridan foydalanish darajasini doimiy nazorat qilish (uskunalarning ish vaqti, bekor turish holatlari, ta'mirlash davriyligi va texnik xizmat ko'rsatish sifati muntazam monitoring qilish talab etiladi);

- korxonaga jalb qilingan xom ashyo va moddiy resurslar sarfini ishlab chiqarish talabidan kelib chiqqan holda shakllantirish;

- ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishda me'yornlarni aniq belgilash (me'yornlarning haqiqatda ishlab chiqarish sharoitlariga mos bo'lishi korxonada resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlab beradi hamda xarajatlarni qisqartirishga xizmat qiladi);

- ishlab chiqarishga ilg'or texnologiya va innovatsiyalarni keng joriy etish (ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni qo'llanishi ishlab chiqarish jarayoni tezligi va mahsulot sifatini oshirishi, resurslar sarfini kamaytirishga xizmat qiladi).

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. Баскакова О.В., Сейко Л.Ф. Экономика предприятия (организация). Учебник. М.: Издательско-торговая корпорация "Дашков и К", 2013, 2013. – 224-229 стр.
2. Макаров В.М., Лукина С.В. Оптимизация производственных мощностей. РИТМ Машиностроения // Журнал. №09, 2015 г. 16-19 стр. https://ritm-magazine.com/sites/default/files/ritm_107.pdf
3. Руткаускас Т.К. и другие. "Экономика организации (предприятия)" учебное пособие. – 2-е изд., Екатеринбург: Изд-во УМЦ УПИ, 2018 - 87-88 стр.
4. Бородай В.А. и другие. Экономика предприятия (организация) [Электронный ресурс]: учебное пособие. – Эл.изд.193-195 стр.
5. Коршунов В.В. Экономика организации (предприятия): Учебник. – 3-е изд.-М.: Издательство Юрайт, 2015. 307-309 стр.
6. Х.К.Қосимов, Д.Х.Асланова, Р.Эргашев. Корхона иқтисодиёти (Ўқув қўлланма). СамДУ нашри, 2003 йил. 77-79 бетлар
7. Б.О.Турсунов. Ўзбекистонда тўқимачилик корхоналарида ишлаб чиқариш қувватларидан самарали фойдаланиш масалалари. "Иқтисодиёт ва инновациялар" илмий электрон журнали. №5, сентябрь-октябрь, 2017 й. www.iqtisodiyot.uz

¹ Manba: Muallifning ilmiy izlanishlari asosida tuzilgan.